

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI UCHUN “MENTAL ARIFMETIKA”NING
AHAMIYATI**

Robiyaxon Yangiboyeva Xaxyoxonovna

Komilova Gulnoraxon Odiljon qizi

Farg'ona viloyati Bag'dod tumani 33-sон umumiy o'rta ta'lim maktabi

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun “Mental arifmetika”ning ahamiyati haqida ma'lumot keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *raqamlı iqtisodiyot, mantiq, tasavvur qilish, analitik fikrlash, ijodiy fikrlash, o'quv vositasi, manfiy sonlar, iste'dod, rag'batlantirish, raqamlar yig'indisi.*

Xalqimizning shunday iborasi borki “*Yoshlikda olingan bilim-toshga o'yilgan naqsh kabidir*”. Har bir mamlakatning rivojlanishi va taraqqiyotida ilmga chanqoq kelajagi porloq yosh avlodning o'rni beqiyos. Shunday ekan, bugungi kunda bolajonlarni maktabgacha ta'lim muassasasi oshidan boshlab mustahkam bilimli, zamon bilan hamnafas va jahon olimpiadalarida ham o'zini yo'qotmay, ishonch bilan qatnasha oladigan ruhda tarbiyalashimiz zarur.

Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich yosh avlodning tarbiysi va kelajagi uchun alohida e'tibor qaratmoqdalar. Bunga misol qilib, kundan-kunga yangicha va jahon bilan raqobatbardosh qilib qurilayotgan va yuksak salohiyatli pedagoglarga ega maktabgacha ta'lim muassasalari, Prezident maktablarini olishimiz mumkin. Hozirgi kunda zamon varaqlariga muhrlangan Alisher Navoiy, Al-Xorazmiy, Al-Beruniydek yuksak ilm va xotiraga ega yosh avlod o'zining qobiliyatlar bilan bizni lol qoldirmoqda. Hatto 5-6-yoshli bolaning matematik misollarni miyasida kalkulyator kabi hisoblashiga qoyil qolmay iloji yo'q. Buning imkoniy yo'q deysizmi? Albatta har bir ishning chorasi topilganidek, buning ham iloji bor. Bizga yaqin yillikda kirib kelgan “Mental arifmetika” o'quvchilarda diqqatni, faollikni, tezkorlik qobiliyatlarni rivojlantiradi. Texnologiyalar rivoji va raqamli iqtisodiyotni chuqur isloh qilish davrida yashayotgan ekanmiz, har bir bolaga kelajak avlodga shu kabi xislatlarni shakllantirishimiz zarur.

Mental arifmetika bu-san'at, aql-idrokni shakllantiruvchi dasturdir. Bu dastur yordamida o'qishda muvaffaqiyatlarga erishish, hayotiy motivatsiyalar yaratish o'z maqsadlarini aniq qo'ya olish va olg'a intilish kabi qobiliyatlar shakllana boradi. Mental arifmetika o'zi nima-qisqa vaqt oralig'ida mental arifmetika ancha rivojlanayotgan bo'lsa-da, biroq hali ko'pchilikdan bir xil savolni eshitib qolamiz. “Mental arifmetika” o'zi nima? Buni tushuntirishning oson yo'lli shundaki, masalan sportning istalgan turini olib qaraydigan bo'lsak, barchasida eng avvalo tanani chiniqtirish mashqlari olib boriladi sportchi jismonan tayyor formaga ega bo'lishi kerak. Hamda muntazam ravishda sportchilar ana shunday chiniqtiruvchi mashqlarni olib boradi. Hattoki, championlar ham doimo sport formalarini saqlash ustida ishlashadi. Tinimsiz mashqlar va ko'nikmalar asl championning siri hisoblanadi. Intellektual yoshlar davrida ham miyamizni ishlatishimiz yuqori natijalarga erishishning muhim omili hisoblanadi. Buning uchun esa, miya faoliyatini rivojlantiruvchi effektiv mashqlar to'plami zarur. Mental

arifmetikaning asosiy g'oyasi ham aynan bolalarda miya faoliyatini rivojlantirish, qobiliyatlarni paydo qilish, kreativlik ruhida kamol topishdan iboratdir. Bir so'z bilan aytganda esa mental arifmetika-aqliy gimnastikaning tan olingan turidir. Mental arifmetika dasturi matematik amallarni miyada kalkulyatordan ham tezroq hisoblashni o'rgatadi. Shuningdek, bolada mantiq, tasavvur qilish analitik fikrlash, ijodiy fikrlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Bu dastur 4 yoshdan 16 yoshgacha bo'lган bolalarning miya faoliyatining rivojlanishiga juda ham yaxshi samara beradi. Shu yoshda bolalar xotirasi barcha darslar va yangiliklarni mukammal darajada saqlay oladi. Dasturda asosiy ishlatalidigan o'quv vositasi abakusdir. Bu vosita bilan ishlayotganda o'ng va chap barmoqlarimiz baravar ishlagan holda, miyamizning o'ng va chap yarimsharlari ham baravar ishlaydi. Natijada miya mushaklari chiniqadi va ma'lumotlarni tezda o'zlashtirib oladi. Abakusning bolaga beradigan oltita ajoyib foydasi konsentratsiya darajasini oshiradi. Hisoblashda yordam beradigan va arifmetik misollarni tezkor hisoblash usulidir. Abakusda hisoblashda aniqlik zarur. Abakus yordamida oddiy arifmetik amallarni o'rganish oson. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bo'lган bolalar mental arifmetika bilan muntazam ravishda shug'ullanib borishsa, maktab davrida ularda raqamlarni yozish sonlarni tushunish bo'yicha muammolar kuzatilmaydi va bu bolalarga matematika asoslari va boshqa fanlarni o'zlashtirishda juda katta yordam beradi. Ularning kundalik faoliyatlarida konsentratsiya darajasini oshiradi. Nafaqat bu, yanada yaxshi va tezroq hisoblash ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Ma'lumki, miyaning ikkita yarim sharlari bor: *o'ng* va *chap*.

O'ng yarim shar tananing chap tomonini, chap yarim shari esa o'ng tomonini boshqaradi. Aksariyat odamlarda chap yarim shar til va nutqni tartibga soladi, o'ng yarim shar esa nonverbal, ijodiy qobiliyatlarni boshqaradi. Xayolda ishlash usulida abakusni havoda tasavvur qilish metodikasi bolalarga miyadagi muammoning tasviriy ko'rinishini rivojlantirishga yordam beradi. Intensiv mashg'ulot orqali bu xotira quvvatini oshirishga yordam beradi. Bolalar abakus yordamida hisoblaganda ularning qo'llari, ko'zлari va miyalari birgalikda ishlaydi, miyalarda ko'rsatilgan harakatlarni eslab qolib, javobni qabul qilishda ikkilanmaydilar. Zero, zamon bilan hamnafas va mustahkam berilgan bilim yuksak marralar poydevoridir.

Matematika fani bo'yicha o'quvchi, talaba va o'qituvchilar o'rtasida turli tanlovlardan o'tkazib g'oliblarni munosib rag'batlantirish, olimpiada tizimini takomillashtirgan holda sovrindorlarga beriladigan mukofotlarni ko'paytirish muhimligi qayd etildi. O'qitish sifatini yangi bosqichga ko'tarish, matematika fanidan bilimlarni baholash bo'yicha milliy sertifikatlash tizimini joriy etish zarurligi aytildi. Bunday sertifikat egasiga oliy o'quv yurtiga o'qishga kirishda matematika fanidan maksimal ball beriladi. Yuqori malakali pedagoglar va ilmiy darajali kadrlar tayyorlash tizimi samarasini oshirish. Matematika institutida ilmiy daraja beruvchi kengashga to'liq mustaqillik berish lozimligi ko'rsatib o'tildi. Shuningdek, Matematika fanining tamal toshini Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy kabi ulug' bobolarimiz qo'yan. Bu bizning qonimizda bor. Bugun matematikani fanini rivojlantirishdan maqsadimiz-matematika bo'yicha raqobar muhitini yaratish, sanoat, muhandislik yo'nalishlari bo'yicha yetuk kadrlar tayyorlash", -dedilar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich. Mutaxassislarining ta'kidlashlaricha, matematikani yaxshi o'zlashtirgan o'quvchining tahliliy va mantiqiy fikrlash darjasini yuqori bo'ladi. U nafaqat misol

va masalalar yechishda, balki hayotdagi turli vaziyatlarda ham tezkorlik bilan qaror qabul qilish, muhokama va muzokara olib borish, ishlarini bosqichma-bosqich bajarish qobiliyatlarini o'zida shakllantiradi.

Matematiklarga xos fikrlash uni kelajakda amalga oshirmoqchi bo'lган ishlar, tevarak-atrofda sodir bo'layotgan voqeа- hodisalar rivojini bashorat qilish darajasiga olib chiqadi. Zero, matematikani yuksak cho'qqiga olib chiqish biz yoshlarning qo'llimizdadir. Bejiz aytilmagan: "Matematika fanlar ichra shox-uning sirlaridan bo'lingiz ogoh".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bikbayeva N., Yangiyeva E., Giranova K. To'rtinchi sinf matematika darsligi. Toshkent."O'qituvchi"-2017 yil.
2. Jumayev M.E. Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi(KHK uchun) Toshkent "Turon-Iqbol" 2012-yil.
3. Shavkatovna S. D. THE IMPORTANCE OF DISTANCE LEARNING IN THE TEACHING OF" METHODS OF TEACHING MATHEMATICS". - 2021.